

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2026.31.01.PED.4502 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**SAIDOV RAVSHAN TURSUNOVICH**

**FILOLOG TALABALARNING O‘QISH KOMPETENSIYASINI INGLIZ  
TILIDAGI BADIY MATNLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Saidov Ravshan Tursunovich**

Filolog talabalarning o‘qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirish.....3

**Саидов Равшан Турсунович**

Совершенствование читательской компетенции студентов-филологов на основе художественных текстов на английском языке.....33

**Saidov Ravshan Tursunovich**

Enhancing reading competence of philology students based on English literary texts.....65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....69

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**SAIDOV RAVSHAN TURSUNOVICH**

**FILOLOG TALABALARNING O‘QISH KOMPETENSIYASINI INGLIZ  
TILIDAGI BADIY MATNLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9365 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Yusupov Otabek Yakubovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Xoshimova Dildorxon Urinbayevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Masharipova Feruza Jumanazarovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi \_\_\_\_\_ raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**I.M.Tuxtasinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**F.G.Zakirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.B.Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH

**Disseratatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yoshlarga sifatli ta'lim berish, raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini CEFR talablari asosida o'rgatishda o'qish kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muhim omil sanaladi. Bugungi kunda AQSh — Volden universiteti, Buyuk Britaniya — Sussex universiteti, Niderlandiya — Radboud universiteti, Indoneziya — Muhammadiyah Surakarta universiteti, Xitoy-Guangdong Baiyun universiteti va Malayziya — Malayziya Reading universiteti kabi rivojlangan davlatlarda talabalarning o'qish kompetensiyasini samarali takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etib, ularning tajribasini o'rganish, hamkorlikdagi izlanishlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida xorijiy tillarni o'qitish jarayonida integrativ yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, chet tilida o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda badiiy matnlardan foydalanish keng va qamrovli talabga aylangan. Axborot almashinuvi hajmi va sur'atlarining o'sishi, kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi til sohasida o'qish ko'nikmasini zaruriy aspekt sifatida baholash va ta'lim jarayonida uning o'rni hamda ahamiyati sezilarli darajada aks etmoqda. Globallashtirish davrida chet tilining roli kuchayishi badiiy matnlarni o'qitish hamda analitik fikrlash, kognitiv bilish, tanqidiy va ijodiy malakalardan foydalana olish ko'nikmasini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan, Respublikamizda ham xorijiy tajribalarni o'rganish, o'qish kompetensiyasini va o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda filologik yo'nalishdagi talabalar uchun o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim usullarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.<sup>1</sup> Bunda filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish; ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida lug'at boyligini oshirish, o'qish ravonligi va matnni anglash ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish; bo'lajak filolog mutaxassislarga o'qish kompetensiyasining tarkibiy qismlarini ta'limda mavjud bo'lgan kommunikativ yondashuv asosida uzviy rivojlantirish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi<sup>2</sup> farmoni, 2026-yil 16-fevral PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni,<sup>3</sup> 2026-yil 10-aprel PF-58-sonli

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr. (murojaat sanasi: 06.03.2024)

<sup>2</sup> 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni

<sup>3</sup> 2026-yil 16-fevral PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari

“Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>4</sup> farmoni, 2026-yil 26-may PF-98-sonli “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi<sup>5</sup> farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ 4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori<sup>6</sup>, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ 4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori<sup>7</sup>, 2021-yil 19-maydagi PQ 5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori<sup>8</sup>, 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5203-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori<sup>9</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori<sup>10</sup> hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham xorijiy tajribaga asoslanib, chet tillarni chuqur egallagan, malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini isloh qilish, o‘qituvchilar maqomini ko‘tarish, ularning bilimini, malakasini oshirish, o‘qituvchilikka eng iste’dodli yoshlarni jalb qilish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida qayta qurish”<sup>11</sup> asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-apreldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>12</sup> qaroriga ko‘ra kasbiy malaka va kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

---

to‘g‘risida”gi farmoni

<sup>4</sup> 2026-yil 10-aprel PF-58-sonli “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

<sup>5</sup> 2026-yil 26-may PF-98-sonli “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4623-son/ <https://lex.uz/docs/-4749364>

<sup>7</sup> 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4884-son/<https://lex.uz/docs/-5085887>

<sup>8</sup> “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ 5117-son qarori.

<sup>9</sup> “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 iyuldagi PQ-5203-son qarori.

<sup>10</sup> “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 maydagi 312-son qarori

<sup>11</sup> 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarorida pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish

<sup>12</sup> Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida 11 aprel 2024 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 415 - son qarori

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish muammolari bo‘yicha J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, T.K.Sattarov, K.N.Karayeva, I.M.Tuxtasinov, K.Sh.Muradkasimova, D.M.Isroilova, N.X.Kushiyeva, A.B.Raxmonov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.<sup>13</sup>

Shuningdek, talabalarni adabiyotga o‘qitish, integrativ yondashuv asosida talabalarining ingliz tilidagi materiallarni o‘zlashtirish, ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish, talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha F.M.Rashidova, K.M.Mavlonova, M.A.Mo‘minova, R.X.Niyozmetova, M.Gulyamovalar o‘z ilmiy ishlari bilan muammoning yechimiga hissa qo‘shganlar.<sup>14</sup>

Mazkur muammo yuzasidan MDH mamlakatlari olimlarining ham ilmiy izlanishlari o‘rganilgan. Jumladan, A. N. Shchukin, I. L. Bim, S. G. Ter-Minasova, L. V. Moskovkinlarning tadqiqotlarida chet til ta’limida matn asosidagi yondashuv, lingvokulturologik hamda kommunikativ metodlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Shuningdek, T. D. Polyakova, N. A. Abisheva va boshqalarning ilmiy

---

<sup>13</sup> Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – М.: МГЛУ, 2012. – 120 с.; Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: “Ўқитувчи, 2012. – 432 б.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов (на материале художественных текстов): Дисс. док ....пед. наук. – Т., 2012. – 320 б.; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.дис...д-ра пед.наук . – Т., 2000. – 329 с.; Караева К.Н. Методика преодоления межъязыковой лексической интерференции при обучении письменному высказыванию в национальных группах языкового вуза (английский язык): Автореф. ... канд. пед. наук. – Т., 1977. – 22 б.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Автореф. ... кан. пед. наук. – Т., 2018. – 69 б.; Мурадкасимова К. Ш. Бўлажак мутахассисларнинг баҳолаш компетенциясини такомиллаштириш концепцияси: Пед.фан.док. (DSc)... Дисс. -Т., 2022. – 200б. Исроилова Д. М. Профессионально ориентированное обучение студентов английскому языку с учётом межпредметных связей в нефилологических вузах (на примере технологического факультета) диссертация доктора филологии по педагогическим наукам Дисс. док ....пед. наук. – Т., 2020. – 144 б. Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка всамообразовательной деятельности.: Автореферат.дис. ...док.пед.наук. – Ташкент, 2022. – 82 с Kushiyeva N.X. Uzluksiz ta’lim tizimida ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o‘qitish modeli: Avtoreferat.dis....p.f.d. – Т., 2023. – 35

<sup>14</sup> Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. ..док.пед.наук. – Т., 2017. – 309 с.; Мавлонова К. М. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: пед.фан.фалс.доктори. (PhD) ...дис. – Т., 2019. – 157 б.; Мо‘minova M. A. Integrativ o‘qitish asosida talabalarining ingliz tilidagi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirish (badiiy adabiyot matnlari misolida) ped.fan.fals.dok.(PhD)...diss. – Т., 2025. – 155 б.; Ниёзметова Р. Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида) пед.фан.док...Дисс. – Т., 2007. – 443 с. Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегрativ ёндашув: пед.фан.фалс.доктори. (PhD) ...дис. – Т., 2019. – 24 б.;

ishlari o'qish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida milliy va mintaqaviy o'ziga xosliklarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida H. Widdowson, J. Harmer, D. Nunan, S. Krashen, L. Vandergrift, Beatrice S. Mikulecky, Linda Jeffries singari olimlarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etgan. Ularning tadqiqotlarida o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda matnning o'rni, tez o'qish metodikasi, shuningdek, tushunishga asoslangan o'qish strategiyalarining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Biroq, filolog talabalarning ingliz tilidagi badiiy matnlarni o'qitish, xususan, lug'at boyligini oshirish, tez o'qish kompetensiyasini takomillashtirish hamda matnni tushunishni takomillashtirish masalasiga doir ishlar yetralicha o'rganilmagan.

Ushbu tadqiqotda o'qish kompetensiyasi ko'p komponentli tizim sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori o'qish kompetensiyasining kognitiv va strategik komponentlarini badiiy matnlar asosida takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, lug'at boyligini kontekst asosida kengaytirish, tez o'qish ko'nikmalarini shakllantirish hamda matn mazmunini chuqur anglash jarayonlari kognitiv komponent doirasida o'rganiladi. Diskursiv va pragmatik komponentlar esa tadqiqotda ikkinchi darajali, qo'shimcha natija sifatida qaraladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy va interfaol usullardan foydalanish" nomli bandi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish hamda o'qish kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish;

talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan "lug'at boyligini oshirish → tez o'qish → matnni chuqur tushunish" ketma-ketligiga asoslangan uch bosqichli modelni ishlab chiqish hamda ilmiy asoslash;

badiiy matnlarni ifodali o'qish jarayonida talaffuz aniqligi, intonatsiya, ritm, pauza va urg'u kabi fonetik komponentlarni baholash mezonlarini tizimlashtirish hamda o'qish kompetensiyasining fonetik aspektini rivojlantirishga qaratilgan eksperimental-fonetik yondashuvni ishlab chiqish.

filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini badiiy matnlar va integrativ yondashuv asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish hamda matnni analitik tahlil qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim mazmunini boyitish;

o'qish tezligi va matnni tushunish darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik vositalar, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlarini ishlab chiqish, Blum taksonomiyasining bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish va umumlashtirish

bosqichlari asosida talabalarining mulohaza yuritish va tahliliy fikrlash kompetensiyasini takomillashtirishga mo'ljallangan diagnostik-modulli treninglarni ishlab chiqish va tajribada sinovdan o'tkazish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalarining ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonidan iborat.

**Tadqiqotning predmetini** filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalarining ingliz tilida badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni, vosita, texnologiyalari va metodikasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mobaynida nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), modellash, diagnostik (so'rovnomalar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (matematik statistik tahlil, natijalarni grafik tasvirlash)dan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarining o'qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirishga yo'naltirilgan uch bosqichli model "lug'at boyligini oshirish → tez o'qish → matnni chuqur tushunish" asosida matnlarni tanlab olish, kognitiv bilish, lingvomadaniy ko'nikmalarni takomillashtirishga doir yaxlit va tizimli ta'lim mexanizmi asosida dalillangan;

badiiy matnlarni ifodali o'qish jarayonida talaffuz aniqligi, intonatsiya, ritm, pauza va urg'u elementlarini baholash mezonlari tizimlashtirilgan hamda o'qishning fonetik aspektini rivojlantirishga yo'naltirilgan eksperimental fonetik yondashuv ishlab chiqilgan;

filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini badiiy matnlar bilan integratsiya asosida o'qish malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish hamda matnni analitik tahlil qilish ko'nikmasi takomillashtirilgan;

o'qish tezligi va matnni tushunish, o'qish kompetensiyasini diagnostika qilish, badiiy matn bilan ishlash kompetensiyasini o'lchovchi topshiriqlar, baholash mezonlari, diagnostik-modulli treninglar asosida talabalarining mulohaza qilishga doir materiallar takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ilmiy izlanishlar asosida ingliz tilida badiiy matnlarni o'qish, o'qishdan oldingi (pre-reading), o'qish jarayonidagi (while reading) va o'qish yakuni (post reading)ga doir mashqlarni o'z ichiga olgan "Badiiy o'qish" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari uchun kredit-modul tizimiga asoslangan o'quv reja va fan dasturlarini yangilash jarayonida "Filologiya va tillarni o'qitish" (ingliz

tili) ta'lim yo'nalishi uchun o'quv dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Ingliz tilidagi badiiy matnlarni o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan uch bosqichli "O'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli" ishlab chiqilgan va ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo'llanilgan terminlar, yondashuvlar va ilmiy-nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi; filologik OTMLlarda ingliz tilini o'qitishning o'quv-uslubiy ta'minoti (DTS, o'quv dasturi, sillabus, darsliklar) va boshqa me'yoriy hujjatlar o'rganilganligi, tajriba-sinov ishlar samaradorligining matematik statistik metodlar asosida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar samaradorligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tilini o'qitishda filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi talabalarining o'qish kompetensiyasini badiiy matnlar asosida rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari aniqlashtirilgani, o'qish kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi hamda uning shakllanish bosqichlari nazariy jihatdan asoslangani bilan belgilanadi. Tadqiqotda badiiy matnlarning o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari, o'qish faoliyatini samarali tashkil etishning metodik yondashuvlari hamda o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida badiiy matnlardan foydalanishning lingvistik, metodik va psixologik xususiyatlari o'rganilib, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan uch bosqichli modelning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirishga oid lingvodidaktik qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan uch bosqichli model, mashqlar tizimi hamda metodik tavsiyalarning ingliz tilini o'qitish jarayonida, xususan, filolog talabalarga badiiy matnlarni o'qitishga oid amaliy mashg'ulotlarda, mustaqil ta'lim jarayonida va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Mazkur metodik yondashuvlar talabalarining lug'at boyligini kengaytirish, o'qish tezligini rivojlantirish, matnni chuqur anglash hamda interpretativ o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliyotga joriy etish talabalarining o'qish kompetensiyasini izchil rivojlantirish, ularning lingvistik va kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda yangi avlod o'quv-metodik materiallarini yaratishda muhim metodik manba sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy-metodologik va amaliy natijalar asosida:

Ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida “lug‘at boyligini oshirish → tez o‘qish → matnni chuqur tushunish” tamoyillariga asoslangan uch bosqichli model hamda unga mos mashqlar tizimi ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot jarayonida lug‘at boyligini kontekst asosida oshirish metodikasi qo‘llanilib, badiiy matnlardagi yangi leksik birliklarni mazmuniy bog‘liqlik orqali o‘zlashtirishga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, skimming, scanning va shadow reading texnikalariga tayangan tez o‘qish mashg‘ulotlari tashkil etilgan hamda matn tahlili, bahs-munozara va ijodiy topshiriqlar orqali o‘qilgan matnni chuqur anglash darajalari rivojlantirilgan. (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 30-yanvardagi №01-03/58 ma‘lumotnomasi). Natijada, kitobxonlarda o‘qish tezligi va matnni chuqur anglash ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish kuzatilib, ishlab chiqilgan modelning samaradorligi amaliy jihatdan tasdiqlangan.

Tadqiqotning xorijiy (ingliz) tildagi badiiy matnlarni o‘qish va talaffuz qilishda xorijiy (ingliz) tildagi real talaffuz namunalarini taqdim etilganligi natijasida aniq va to‘g‘ri talaffuz o‘rganilganligi, talaffuzdagi xatolarni kamayganligini tasdiqlangani; badiiy matnlar tez o‘qish mashg‘ulotlari uchun asosiy vosita sifatida qo‘llanilganligi bois, talabalarni tez o‘qish paytida o‘z intonatsion talaffuzlarini boshqarishga hamda intonatsiya va pauza tabiiyligiga e‘tibor kuchayganligi isbotlangani; badiiy matnlarni ifodali o‘qishda, fonetik aniqlik, intonatsiya, ritm va pauza, so‘z urg‘usi, ovozni boshqarish, ifodali o‘qish mashqlarini baholash me‘zonlarining manbai ekanligini kabi ilmiy natija va xulosalaridan “Eksperimental fonetik laboratoriya yaratish xorijiy til misolida” loyihasida unumli foydalanilgan. (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Eksperimental fonetik laboratoriya yaratish xorijiy til misolida” nomli amaliy loyihasining 2025-yil 4-dekabrdagi 04-04-1/6842-son ma‘lumotnomasi) Natijada, eksperimental fonetik yondashuv asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalar nutqining fonetik tozaligi va ifodaliligini oshirishga, shuningdek, tez o‘qish jarayonida intonatsiyani nazorat qilish malakasini shakllantirishga xizmat qilgan.

“O‘qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli” asosida filolog talabalarining o‘qish kompetensiyasini badiiy matnlar asosida takomillashtirish maqsadida “Badiiy o‘qish” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan. (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 30-apreldagi №203/11-08 o‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada, mazkur o‘quv qo‘llanma ingliz tili ta‘limida badiiy matnlarni o‘qitish jarayonini tizimlashtirish, o‘qish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda talabalarining mustaqil fikrlash va matnni tahlil qilish salohiyatini kuchaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot jarayonida ingliz badiiy asarlari asosida o‘qish kompetensiyasini baholash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar va diagnostik mezonlar ishlab chiqilib, o‘qish jarayonining semantik, kontekstual va stilistik jihatlari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Dissertatsiyasida ishlab chiqilgan filolog talabalarining o‘qish kompetensiyasini diagnostika qilish va rivojlantirishga doir uch bosqichli modeli mazkur innovatsion loyihadagi professor-o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlik darajasini baholashning psixologik-diaagnostik mezonlari tizimini

yanada takomillashtirishda metodik asos sifatida qo'llanilgan. (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish" nomli amaliy loyihasining 2026-yil 7-yanvardagi 11-25/12-son ma'lumotnomasi) Natijada, badiiy matn bilan ishlash kompetensiyasini o'lchovchi topshiriqlar, baholash mezonlari hamda diagnostik-modulli treninglar integratsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 2 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusining asosiy mazmuni jami 12 ta ilmiy-uslubiy va 1 ta o'quv qo'llanmada o'z aksini topgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 3 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Disseratasiya kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 159 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Chet tillarni o'qitishda o'qish kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida filolog talabalarda o'qish kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari, uning ilmiy, adabiy va madaniy ahamiyati, shuningdek amaliyotdagi o'rni keng ko'lamda tahlil qilingan. Filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda nazariy yondashuvlar, lingvistik, adabiy va kognitiv jarayonlar o'zaro aloqasi ko'rib chiqilgan.

Kommunikativ kompetensiya ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Lingvistik kompetensiya – fonetik, leksik va grammatik bilimlar majmuasi bo'lib, til tizimini to'g'ri qo'llashni ta'minlaydi.
2. Nutqiy kompetensiya – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi.

Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Til tizimining fonetik, leksik va grammatik jihatlari nutq faoliyatining asosi hisoblanadi, shu bilan birga nutqiy faoliyat (masalan, matnni tahlil qilish, o'qilgan asar haqida fikr bildirish) lingvistik bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

S. Feez va H. Joyce tomonidan ishlab chiqilgan matn asosida o'qitishning integrativ aylanish modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Kontekstni yaratish – mavzuni tanishtirish va talabalarni asar mazmuniga tayyorlash.

2. Matnni tahlil qilish va modellashtirish – badiiy matnning til, uslub va struktura jihatlaridan o'rganish.

3. Birgalikda matn yaratish – o'qituvchi va talabalar hamkorlikda o'xshash matn yozadilar.

4. Mustaqil matn yaratish – talabalar o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki tarzda ifoda etadilar.

5. Bog'liq matnlar bilan ishlash – o'rganilgan asarni boshqa janr yoki davr asarlari bilan taqqoslash orqali bilimni kengaytirish.<sup>15</sup>

Bu bosqichlar orqali talabalar badiiy matnni nafaqat tushunadilar, balki uni lingvistik, estetik va madaniy nuqtai nazardan ham anglaydilar.

Badiiy matnlar til o'rganishda eng tabiiy va boy manba hisoblanadi. Ular orqali talabalar:

- yangi so'z boyligini egallaydilar,
- grammatik tuzilmalarni kontekstda o'rganadilar,
- madaniyatlararo tafakkurni rivojlantiradilar,
- tahlil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Masalan, George Bernard Shaw, Ian Fleming, Charles Dickens, F. Scott Fitzgerald, Mark Cerasini hamda Elizabeth Gaskell kabi yozuvchilarning asarlarini o'qish talabalarga nafaqat ingliz tilini chuqurroq o'zlashtirish, balki inson psixologiyasi, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar va turli madaniy qadriyatlarni anglash imkonini beradi.

O'qish kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat:

1. Lug'at boyligini oshirish – talabalarning so'z boyligini kengaytirish orqali ularning matnni tushunish qobiliyatini oshirish.

2. O'qish tezligi va ravonligini takomillashtirish – matnni tez va aniq o'qish ko'nikmalarini mustahkamlash.


3. Matnni chuqur tushunish kompetensiyasini shakllantirish – matnni tahlil qilish, sharhlash va unga asoslangan holda o'z fikrini mantiqiy bayon etish qobiliyatini takomillashtirish.

Quyida ushbu jihatlar bo'yicha o'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli hamda ularni takomillashtirish strategiyalari keltiriladi. (1-rasmga qarang)<sup>16</sup>

---

<sup>15</sup> Feez, S., Joyce, H. The Writing in the Primary School. Sydney: NSW Department of School Education, 2002. 148 p.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi



## 1-rasm. O'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli

Mazkur o'qish kompetensiyasini takomillashtirish modelini ta'lim jarayoniga joriy etish natijasida filolog talabalarda ingliz tilidagi badiiy matnlarni o'qish jarayonida leksik, semantik va kognitiv mexanizmlarni integratsiyalashgan holda qo'llash asosida o'qish kompetensiyasining kompleks va barqaror shakllanishi ta'minlanadi. Talabalar matnni tez, ongli va tanqidiy o'qish, mazmunni kontekst asosida talqin qilish hamda o'qish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan o'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli filolog talabalarining ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyasini leksik boylikni oshirish, tez o'qish va matnni chuqur tushunish bosqichlari orqali tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularning mustaqil, tanqidiy va samarali o'quv faoliyatini shakllantirishni ta'minlaydi. Taklif etilayotgan "lug'at boyligini oshirish → tez o'qish → matnni chuqur tushunish" uch bosqichli modeli zamonaviy o'qish nazariyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Xususan, mazkur model interactive reading model (Rumelhart, 1980; Stanovich, 1984) doirasida pastdan-yuqoriga (bottom-up) jarayon sifatida leksik birliklarni avtomatlashtirishni nazarda tutadi, bu esa o'qish tezligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transactional reading model (Rosenblatt, 1978) asosida talaba va matn o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni matnni chuqur tushunish bosqichida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, model metakognitive reading model (Flavell; Pressley) bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabalarining o'qish jarayonida rejalashtirish, monitoring va baholash strategiyalarini qo'llashini nazarda tutadi. Shu bois, taklif etilayotgan uch bosqichli model zamonaviy o'qish nazariyalarining integratsiyalashgan didaktik talqini sifatida qaraladi. Shuningdek, M. Dolzhenkova<sup>17</sup> va E. Toprak<sup>18</sup> kabi olimlar o'z tadqiqotlarida uch bosqichli modelga murojaat qilishgan va ular quyidagi bosqichlardan iborat:

Pre-reading (O'qishdan oldingi bosqich) - ko'rish va faollashtirish;

While reading (O'qish jarayonidagi bosqich - kuzatish va o'zaro muloqot;

Post-reading (O'qishdan keyingi bosqich - Tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish.

Quyida muallif ishlab chiqqan modelhamda boshqa olimlar modellarining farqli jihatlari bayon etilgan:

### 1-jadval.

#### Muallif modelining avvalgi mavjud modellar bilan solishtirma jadvali

| № | Muallif nomi    | Model nomi          | Model komponentlari             | Asosiy yo'nalish     | Farqli jihatlari                           |
|---|-----------------|---------------------|---------------------------------|----------------------|--------------------------------------------|
| 1 | Stephen Krashen | "Extensive reading" | Erkin o'qish, katta hajmda matn | O'qishga qiziqish va | Lug'at, tez o'qish va interpretativ tahlil |

<sup>17</sup> Dolzhenkova M.I., Medvedov N.V. Hausman-Ushkova N.V. Theory and methods of foreign languages teaching, 2024. Derzhavin Tambov University p-74-87

<sup>18</sup> E. Toprak Three-phase model for teaching reading in higher education, 2009, Journal of language and linguistic studies, p-20-36

|   |                       | modeli                                                                          | o'qish,<br>motivatsiyani<br>oshirish                                        | tabiiy til<br>o'zlashtirish                  | yagona tizimda<br>integratsiyalashmag<br>an                                                                               |
|---|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2 | Christine<br>Nuttal   | Reading skills                                                                  | Skimming and<br>scanning, intensiv<br>o'qish                                | O'qish<br>strategiyalarini<br>rivojlantirish | Fonetik va badiiy-<br>interpretativ<br>aspektlar yetarli<br>yoritilmagan                                                  |
| 3 | Françoise<br>Grellet  | Reading<br>development                                                          | Matnni tushunish,<br>kontekstual tahlili                                    | O'qish<br>texnikalarini<br>shakllantirish    | Badiiy matnlarning<br>filologik tahlili va<br>CEFR integratsiyasi<br>mavjud emas                                          |
| 4 | Yevropa<br>konsulligi | CEFR<br>asosidagi<br>model                                                      | A1-C2<br>komponentlari<br>reseptiv<br>ko'nikmalar, o'qish<br>deskriptorlari | Kompetensiyavi<br>y yondashuv                | Badiiy matnlar<br>asosidagi maxsus<br>filologik model<br>ishlab chiqilmagan                                               |
| 5 | Muallif<br>ishlanmasi | Uch bsoqichli<br>o'qish<br>kompetensiya<br>sini<br>takomillashtir<br>ish modeli | 1-lug'at boyligini<br>oshirish, 2-tez<br>o'qish, 3-o'qib<br>tushunish       | Integrativ<br>lingvodidaktik<br>yondashuv    | Badiiy matnlar,<br>CEFR, fonetik<br>aspekt va<br>interpretativ o'qish<br>yagona metodik<br>tizimda<br>integratsiyalashgan |

O'qish kompetensiyasini samarali takomillashtirish lug'at boyligi, o'qish tezligi va o'qishni tushunish jarayonlarining kompleks integratsiyasini talab etadi. Shu bilan birga, talabani motivatsiyasi ham hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'qishga bo'lgan qiziqish va ichki ehtiyoj o'quv jarayonini yanada mazmunli qiladi, talabani faol bilim egallashga undaydi va matnga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shunday qilib, o'qish kompetensiyasi nafaqat tilni o'zlashtirish jarayonida, balki shaxsning umumiy intellektual salohiyatini yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish motivatsiyasini oshirish strategiyalari:

1. Qiziqarli materiallar tanlash: talabani qiziqishlariga mos keladigan kitoblar va maqolalarni tanlash.

2. O'z-o'zini rag'batlantirish: O'qish jarayonida o'zingizga kichik mukofotlar berish (masalan, sevimli filmni ko'rish yoki sevimli ovqatdan tatib ko'rish).

3. O'qigan material haqida muhokama: O'qilgan asar yoki maqola haqida do'stlar yoki oila a'zolari bilan fikr almashish orqali qiziqishni oshirish.

O'qish jarayonida maqsadlar qo'yish va ularga erishish uchun rejalashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'limiy faoliyatni ongli ravishda boshqarish, avvalo, maqsadlarning aniq qo'yilishi va ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqish bilan bevosita bog'liqdir. Talaba tomonidan shaxsiy o'quv maqsadlarining belgilanishi uning

motivatsion holatini faollashtiradi, kognitiv resurslarini yoʻnaltiradi va oʻzlashtirish jarayonini izchil tashkil etishga yordam beradi.

Oʻqish kompetensiyasi shaxsning matnni qabul qilish, anglash va talqin etish qobiliyatini belgilovchi muhim koʻnikma hisoblanadi. Ushbu kompetensiyani takomillashtirish jarayonida samarali strategiyalarni qoʻllash va tegishli metodik yondashuvlardan foydalanish zarur. Tadqiqotchilar taʼkidlashicha, oʻqish kompetensiyasi asosan uch tarkibiy jihatni qamrab oladi: lugʻat boyligi, oʻqish tezligi va oʻqishni tushunish.<sup>19,20</sup>

Filolog talabalar uchun oʻqish kompetensiyasi umumiy til oʻrganuvchilarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Chunki filolog talaba matnni nafaqat mazmuniy jihatdan tushunishi, balki uning uslubiy, lingvopoetik, madaniy va diskursiv xususiyatlarini ham tahlil qila olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, S.K. Folomkina<sup>21</sup> taʼkidlaganidek, “yetuk oʻquvchi” — bu oʻqish faoliyatini erkin amalga oshira oladigan, muayyan oʻqish vazifasiga mos usullarni tanlaydigan va muammoni nafaqat toʻgʻri, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali hal qila oladigan shaxsdir. Demak, filolog talaba oʻqish jarayonida maqsadga muvofiq strategiyani tanlay olishi, matn ustida ishlashda ortiqcha vaqt va kuch sarflamasdan, optimal usullardan foydalana bilishi zarur.

Zamonaviy metodologiyada oʻqish turlarining turlicha tasniflari mavjud boʻlib, ular turli tamoyillarga asoslanadi. Masalan, “analitik” va “sintetik” oʻqish atamaları matn bilan ishlashning muayyan usullarini ifodalaydi. Analitik oʻqish tushunarsiz joylarni tahlil qilish, til birliklarini ajratish va chuqur oʻrganishga asoslanadi. Shu maʼnoda u “tushuntirish”, “lugʻat bilan oʻqish”, “diskursiv” yoki “intensiv” oʻqish atamaları bilan ham ifodalanadi. Sintetik oʻqish esa matnni yaxlit holda qabul qilish, umumiy mazmunni tez va ravon anglashga qaratilgan boʻlib, u “ravon”, “tez tushunib oʻqish” yoki “keng qamrovli (ekstensiv)” oʻqish tushunchalari bilan uygʻunlashadi.

Shuningdek, keyingi mashgʻulotlarda oʻqish jarayonida olingan maʼlumotlardan foydalanish mezoniga asoslangan tasnif ham mavjud. Bu tasnif sifat jihatidan farqlanuvchi koʻrsatkichlarga tayanadi va oʻqilgan axborotdan qay darajada toʻliq hamda toʻgʻri foydalanish masalasini ilgari suradi. Natijada, oʻqish jarayonida toʻliqlik va toʻgʻrilik darajasi oʻzaro bogʻliq holda namoyon boʻladi. Aynan shu mezonlar filolog talabalarda oʻqish kompetensiyasini chuqurlashtirish va uni professional darajaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

U quyidagi asosiy jihatlarni oʻz ichiga oladi:

- Lingvistik tahlil – matn fonetik, morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tahlil qilinadi.<sup>22</sup>

<sup>19</sup> Grabe, W., Stoller, F. L. Teaching and Researching Reading. — 2nd ed. — Harlow: Pearson Education, 2013. — 482 p.

<sup>20</sup> Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 477 p.

<sup>21</sup> S.K.Folomkina. Teaching reading in a foreign language in a non-linguistic university. Moscow 2005. p-83

<sup>22</sup> Halliday, M.A.K., & Hasan, R. (2021). Cohesion in English. London: Longman. Updated version – 374 p. - 14p

- Tanqidiy o'qish – matnning kontekstini, muallifning nuqtayi nazarini, stilistik vositalarni tushunish va tahlil qilish.<sup>23</sup>

- Intertekstual yondashuv – matnning boshqa matnlar bilan bog'liqligi, adabiy va madaniy kontekst doirasida tahlil qilish.<sup>24</sup>

- Diskurs tahlili – matnning uslubiy va janr xususiyatlarini aniqlash, uning kommunikativ maqsadini tushunish.<sup>25</sup>

Shu bois filolog talabalar o'qish jarayonida oddiy so'z va gaplarni tushunish bilan cheklanib qolmay, matnning lingvistik va adabiy jihatlarini tahlil qilish, uslubiy xususiyatlarini anglash va intertekstual bog'liqliklarni ochib berish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.

Ko'plab tahlillar natijasida talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli biz tomonimizdan ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Leksik boylikni oshirish – bu bosqichda talabalar uchun so'z boyligini kengaytirish maqsadida kontekst asosida yangi so'zlarni o'rganish, ularni xotirada mustahkamlash va amaliy qo'llash usullari qo'llaniladi.

O'qish ravonligini shakllantirish – ushbu bosqichda talabalar tez va aniq o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunda fonetik laboratoriya ishi, jadal o'qish texnikalari va matnni ovoz chiqarib o'qish mashqlari muhim rol o'ynaydi.

O'qib tushunish qobiliyatini takomillashtirish – yakuniy bosqichda talabalar badiiy matnlarni chuqur tahlil qilish, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish hamda matn mazmunini sharhlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu modelning integratsiyalashgan yondashuvi talabalar uchun nafaqat so'z boyligini oshirish, balki tez va tushunib o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishga ham imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning **“O'qish mashg'ulotlarida badiiy matnlarni o'qitishning shakl va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'qish mashg'ulotlarida badiiy matnlarni o'qitishning shakl va metodlari tizimli ravishda ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida, avvalo, interfaol metodlarning o'qish kompetensiyasini shakllantirishdagi roli hamda ularning o'quv jarayoniga integratsiyalashuv mexanizmlari asoslab berildi. Aniqlanishicha, ushbu metodlar talabalarning matn mazmunini ongli qabul qilishi, muallif pozitsiyasini talqin etishi, matn doirasida tahliliy va interpretativ fikrlashni takomillashtirishi, shuningdek, shaxsiy nuqtai nazarni asoslangan holda ifodalashi uchun samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlar o'qish mashg'ulotlarini reproduktiv shakldan ko'ra dialogik, hamkorlikka asoslangan ta'lim modeli sifatida qayta tashkil etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>23</sup> Paul, R., & Elder, L. (2006). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall. – 544 p. -25 p

<sup>24</sup> Kristeva, J. (2021). Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. New York: Columbia University Press Updated version. – 305 p. -36 p

<sup>25</sup> Swales, J. M. (2022). Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge: Cambridge University Press. Updated version. – 260 p. - 40 p

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz) ta'lim yo'nalishida o'qish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'quv dasturlari va darsliklar ilmiy-metodik tahlil qilindi. Tahlil natijasida mazkur ta'lim resurslarining mazmuniy tuzilishi, metodik tamoyillari, ilmiy asoslanganligi va amaliy qo'llash imkoniyatlari aniqlanib, ularni takomillashtirish zaruratini ko'rsatuvchi omillar belgilandi. Ushbu jarayon natijasida o'qish kompetensiyasini yanada mukammal takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Darsliklar o'qish kompetensiyasini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Filologik yo'nalishlarda qo'llaniladigan darsliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati talabalarining lingvistik bilimlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan, ammo o'qish kompetensiyasini keng qamrovli tarzda takomillashtirish bo'yicha yetarli darajada ish olib borilmagan. Binobarin, ingliz tilini o'qitish (ELT) bo'yicha yaratilgan zamonaviy o'quv dasturlari tilshunoslik va ikkinchi tilni o'zlashtirish (SLA) doirasida olib borilgan tadqiqotlar ta'sirida shakllangan bo'lib, global migratsiya jarayonlari, shuningdek ingliz tilining xalqaro biznes, ilm-fan va innovatsiyalar tili sifatida ustun mavqega ega bo'lishi bilan izohlanadi. Ketlin Greyvz o'zining "Language Curriculum Design: Possibilities and Realities" maqolasida o'quv dasturlarining rivojlanish tarixini uch asosiy bosqichga ajratadi:<sup>26</sup>

- 1) Lingvistik yo'nalish (The linguistic wave)
- 2) Kommunikativ yo'nalish (The communicative wave)
- 3) Uchinchi yo'nalish (Third wave)

*Lingvistik yo'nalish:*

Ushbu bosqichdagi o'quv dasturlari tilni tashqi bilimlar majmui sifatida talqin qiladi. Til o'rganuvchi egallashi kerak bo'lgan bilimlar aniq qismlarga bo'linadi va barcha o'rganuvchilardan bir xil natija kutiladi. Bunday yondashuvda talabalarining individual farqlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi.

J. Jalolov ta'kidlaganidek, chet tilini o'qitishda individual yondashuv prinsipiga amal qilish zarur bo'lib, bunda har bir talabaning qobiliyati, qiziqishi, ehtiyojlari, shaxsiy xususiyatlari va bilim darajasidagi farqlar hisobga olinishi kerak. Shu bois o'quv materialini tanlashda ham talabalarining individual xususiyatlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.<sup>27</sup>

Filologik ta'lim uchun ishlab chiqilgan dastur va darsliklarni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surildi:

- Interfaol yondashuvni kengroq joriy etish – o'qish mashg'ulotlarida talabalarni faollashtiruvchi usullarga ko'proq e'tibor qaratish;
- Matn tanlashda strategik yondashuvni qo'llash – talabalar uchun qiziqarli va foydali bo'lgan matnlarni tanlash;

<sup>26</sup> Kathleen Graves Languag curriculum design. Possibilities and realities. The Routledge Handbook of English Language Teaching Account. 2016, Routledge page 80 (MSU)

<sup>27</sup> J.Jalolov. «Chet tili o'qitish metodikasi» Chet tillar oliy o'quv yurtlari uchun darslik. «O'qituvchi» Toshkent 2012. 87 bet

- O'qish kompetensiyasini baholash tizimini takomillashtirish – talabalarning matnni tushunish darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- O'qituvchilarni zamonaviy metodika bo'yicha tayyorlash – o'qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni o'rgatish;

Interfaol o'qish metodlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Interfaol materiallardan foydalanish: talabalar uchun qiziqarli va o'quv maqsadlariga moslashtirilgan interfaol darsliklar, multimedia taqdimotlar va virtual laboratoriyalardan foydalanish. Bu materiallar talabalarning diqqatini jalb qiladi va ularning o'qish jarayoniga qiziqishini oshiradi.

2. Interfaol mashqlar va topshiriqlar: talabalarning o'qish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan interfaol topshiriqlar, masalan, matnni tahlil qilish, savollarga javob berish va muhokamalarda qatnashish. Bu mashqlar talabalarning tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi.

3. Interfaol o'qish platformalari: onlayn o'qish platformalari va elektron kutubxonalardan foydalanish orqali talabalar o'z bilimlarini mustahkamlab, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

4. Interfaol o'qish metodlarini qo'llashning pedagogik samaradorligi: Interfaol o'qish metodlarini qo'llash orqali talabalar o'qish ko'nikmalarini tez va samarali takomillashtirishadi. Bu metodlar talabalarning o'qish jarayonida mustaqil fikrlash va o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Shuningdek, mazkur bobda o'quv mashg'ulotlari jarayonida badiiy matnlar asosida talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda differensial mashq va topshiriqlardan foydalanish texnologiyasi alohida tahlil qilindi. Mazkur texnologiyaning didaktik asoslari ochib berilib, unlarining talabalarda mustaqil fikrlashni faollashtirishi, matn bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirishi, leksik boylikni kengaytirishi, matnni tez va anglab o'qishga yo'naltirishi hamda tahliliy mulohaza yuritish malakasini takomillashtirishi aniqlashtirildi. Mashq va topshiriqlarning turli tipologiyasi o'qish kompetensiyasini kompleks takomillashtirishda muhim metodik mexanizm sifatida e'tirof etildi.

Biz tomonimizdan taklif etilgan **“O'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli”** asosida uch bosqichli mashq turlari tizimlashtirilgan.

Quyida 3 bosqichli mashqlar tizimi mantiqan izchil va qisqartirilgan shaklda bayon qilinadi. Tuzilma bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyiliga asoslanadi: 1-bosqich — leksik asos yaratish, 2-bosqich — ravon o'qish ko'nikmasini shakllantirish, 3-bosqich — ifodali va kommunikativ o'qishga o'tish.

1-bosqich: Leksik va semantik tayyorgarlik

Bu bosqichning asosiy maqsadi — talabalarning lug'at boyligini kengaytirish va matnni ongli tushunishga zamin yaratish.

Asosiy mashqlar:

- Kontekstual taxmin qilish – notanish so'z ma'nosini kontekstdan aniqlash.
- Sinonim va antonim topish – semantik bog'lanishlarni mustahkamlash.

- Soʻz hosil qilish (word formation) – prefiks, suffiks va ildiz asosida yangi birliklar yaratish.

- Gapni toʻldirish – soʻzning kontekstdagi qoʻllanilishini mustahkamlash.

- Soʻz xaritalari va tematik lugʻat – assotsiativ fikrlash va mavzuviy tizimlashtirishni rivojlantirish.

- Rolli oʻyinlar – oʻrganilgan birliklarni faol nutqda qoʻllash.

Natija: talabada matnni tushunish uchun zarur boʻlgan leksik baza shakllanadi va mustaqil oʻqish uchun tayyorgarlik yaratiladi.

2-bosqich: Reading Fluency (Ravon oʻqishni shakllantirish)

Bu bosqich oʻqish tezligi, aniqligi va intonatsiyasini rivojlantirishga qaratiladi. S.J. Samuels taʼkidlaganidek, ravon oʻqish — avtomatlashtirilgan dekodlash va toʻgʻri intonatsiyaning uygʻunligidir.

Asosiy mashqlar:

- Echo Reading – oʻqituvchi oʻqiydi, talabalar takrorlaydi.

- Paired Reading – juftlikda oʻqish va rollarni almashtirish.

- Choral Reading – jamoaviy ovoz chiqarib oʻqish.

- Phrase-Cued Reading – matnni maʼnoli iboralarga ajratib oʻqish.

- Shadow Reading – yetakchi oʻqishni bir vaqtda ergashib takrorlash.

Natija: talaffuz, ritm, tezlik va intonatsiya yaxshilanadi; oʻqish jarayoni avtomatlashtiriladi.

3-bosqich: Ifodali va kommunikativ oʻqish

Bu bosqichda oʻqish tahliliy va ijodiy darajaga koʻtariladi, yaʼni talaba matnni nafaqat oʻqiydi, balki uni talqin qiladi.

Asosiy mashqlar:

- Readers' Theater – matnni rollarga boʻlib sahnalashtirish.

- Dialog va dramatik oʻqish – obrazli va hissiy talqin qilish.

- Mazmunni qayta hikoyalash va muhokama qilish – oʻqilgan maʼlumotdan foydalanish.

- Tahliliy savol-javoblar – muallif pozitsiyasi va gʻoyaviy mazmunni aniqlash.

Natija: talaba matnni chuqur tushunadi, uni tahlil qiladi va oʻz fikrini asosli bayon eta oladi.

Xulosa: ushbu 3 bosqichli tizim izchil rivojlanish modeliga asoslanadi:

Leksik tayyorgarlik → Ravon oʻqish → Ifodali va tahliliy oʻqish.

Natijada filolog talabalarda nafaqat oʻqish tezligi va aniqligi, balki analitik fikrlash, interpretatsiya va professional matn bilan ishlash kompetensiyasi ham shakllanadi. Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Badiiy matnlarni oʻqitish orqali talabalarning oʻqish kompetensiyasini takomillashtirishning eksperimental tadqiqi”** deb nomlanadi. Talabalarning oʻqish kompetensiyasini takomillashtirishda ingliz tilidagi badiiy matnlarni tanlash va tuzish tamoyillari hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni va metodikasi hamda samaradorlik darajasi yoritilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy

maqsadi tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalarning pedagogik farazlarga nechog'lik to'g'ri ekanligini isbotlashdan iborat bo'ldi.

Talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda matn tanlash jarayoni muhim rol o'ynaydi, chunki sifatli va didaktik jihatdan to'g'ri tanlangan badiiy matnlar nafaqat til bilimi, balki madaniy tafakkurni ham shakllantiradi.<sup>28</sup> Zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, matnlarni tanlash va tuzish jarayoni lingvistik, psixologik va pedagogik omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.<sup>29</sup>

Badiiy matnlarni tanlash tamoyillari quyidagilardan iborat:

#### *1. Lingvistik moslik tamoyili*

Badiiy matnning til jihatdan talabalarga mos kelishi muhim. C. Nuttall ta'kidlaganidek, matn tanlashda leksik va grammatik murakkablik darajasi hisobga olinishi lozim.<sup>30</sup> Matn:

- B2 yoki C1 darajadagi talabalar uchun yetarlicha boy leksik va grammatik tuzilishga ega bo'lishi;

- Idiomatik ifodalar va frazeologizmlarni o'z ichiga olishi;

- Konversatsion uslub va badiiy uslub farqlarini aks ettirishi kerak.

#### *2. Didaktik maqsadga xizmat qilish tamoyili*

Matn o'quv jarayonida ma'lum didaktik maqsadlarga xizmat qilishi lozim. J. Harmer ga ko'ra, yaxshi tanlangan matn:

- talabalarning tanqidiy tafakkurini takomillashtirishga xizmat qiladi;

- o'qish strategiyalarini (skimming, scanning, intensive reading) mashq qilish imkonini beradi;

- mavzusi bo'yicha talabalarning qiziqish doirasiga mos kelishi kerak.

#### *3. Madaniy komponentni aks ettirish tamoyili*

M.Byramga ko'ra, til o'rganish jarayonida madaniyat bilan bog'liq komponentlar muhim o'rin tutadi.<sup>31</sup> Shunday qilib, matn:

- ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniyatini aks ettirishi kerak;

- madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishi lozim;

- turli ijtimoiy muammolarni ko'tarib, talabalarni ijtimoiy tafakkurga o'rgatishi kerak.

Badiiy matnlarni tuzish tamoyillari

#### *1. Talabalarga mos kelish tamoyili*

Matn talabalarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos bo'lishi lozim. R.Day va J. Bamford tadqiqotlarida aytilishicha, talabalar uchun qiziqarli bo'lgan matnlar ularning motivatsiyasini oshiradi.<sup>32</sup>

#### *2. Rivojlantiruvchi tamoyil*

<sup>28</sup> Лазар, Г. Использование литературы в обучении языку: Руководство для учителей и студентов. — Кембридж: Cambridge University Press, 1993. — 293 с.

<sup>29</sup> Krashen, S. The Power of Reading: Insights from the Research. — Portsmouth, NH: Heinemann, 2004. — 199 p.

<sup>30</sup> Nuttall, C. Teaching Reading Skills in a Foreign Language. — Oxford: Macmillan Education, 2005. — 296 p.

<sup>31</sup> Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.

<sup>32</sup> Day, R., Bamford, J. Extensive Reading in the Second Language Classroom. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 238 p.

- soʻz boyligini oshirishga;
- matnni tushunish koʻnikmalarini takomillashtirishga;
- mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.<sup>33</sup>

### 3. Kontekstual tamoyil

Badiiy matn real hayotiy kontekst bilan bogʻlangan boʻlishi lozim. S. Krashen nazariyasiga koʻra, kontekstualizatsiya qilingan matnlar talabalarning tabiiy til oʻrganish jarayonini tezlashtiradi.<sup>34</sup>

### 4. Interfaollik tamoyili

- rolli oʻyinlar asosida matnlarni jonlantirish;
- debat va munozaralar uchun muhokamaga sabab boʻluvchi matnlarni tanlash.<sup>35</sup>

Shuningdek, tadqiqotda matnlarni tanlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilgan:

- leksik murakkablik darajasi;
- sintaktik tuzilmalarning murakkabligi;
- stilistik vositalarning mavjudligi;
- madaniy va pragmatik yuklama;
- talabalarning CEFR darajalariga mosligi.

## 2-jadval<sup>36</sup>

### Badiiy matnlarni CEFR darajalari bilan bogʻlashning metodik tavsiflari

| CEFR darajasi | Tavsiya etiladigan badiiy matn janrlari                             | Lingvistik murakkablik uchun metodik samaradorligi                               | Filolog talabalar uchun metodik samaradorligi                                            |
|---------------|---------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>A2</b>     | Qisqa hikoyalar, adaptatsiyalangan ertaklar, sodda dialogik matnlar | Oddiy gap tuzilmalari, kundalik leksika, idiomatik soʻzlar                       | Lugʻat boyligini oshirish, asosiy mazmunni tushunish, oʻqishga qiziqishni shakllantirish |
| <b>B1</b>     | Hikoyalar, sarguzasht janridagi qisqa qissalar, zamonaviy proza     | Oʻrta darajadagi sintaktik murakkablik, koʻproq bogʻlovchi vositalar va tasviriy | Oʻqish tezligini rivojlantirish, kontekst orqali maʼno anglash,                          |

<sup>33</sup> Grellet, F. Developing Reading Skills: A Practical Guide to Reading Comprehension Exercises. — Cambridge: Cambridge University Press, 1981. — 256 p.

<sup>34</sup> Krashen, S. The Power of Reading: Insights from the Research. — Portsmouth, NH: Heinemann, 2004. — 199 p.

<sup>35</sup> Ur, P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. — Cambridge: Cambridge University Press, 1996. — 375 p.

<sup>36</sup> Muallif ishlanmasi

|           |                                                                                |                                                                                           |                                                                                                                            |
|-----------|--------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|           |                                                                                | birliklar                                                                                 | interpretativ o'qishni boshlash                                                                                            |
| <b>B2</b> | Romanlar, dramatik asarlar, psixologik va ijtimoiy mavzudagi proza             | Murakkab gaplar, stilistik vositalar, yashirin ma'no va madaniy birliklar                 | Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, stilistik tahlil qilish, chuqur tushunish ko'nikmasini shakllantirish                  |
| <b>C1</b> | Klassik adabiyot, modernistik romanlar, esse va stilistik jihatdan boy asarlar | Yuqori darajadagi leksik zichlik, murakkab sintaksis, metafora va intertekstual birliklar | Interpretativ va analitik o'qish kompetensiyasini rivojlantirish, filologik tahlil va akademik fikrlashni chuqurlashtirish |

### **Matn tanlash va tuzishda qo'llaniladigan usullar:**

#### *1. Bosqichma-bosqich yondashish usuli*

Avval oddiy matnlardan boshlash va murakkabroq matnlarga o'tish. talabalarning fikrlarini inobatga olish va ularning qaysi mavzularga qiziqishini o'rganish.

#### *2. Texnologiyalardan foydalanish usuli*

Audio-kitoblar va interfaol ilovalar yordamida matnlarni yanada tushunarli qilish.

#### *3. Matnlarni moslashtirish usuli*

Agar matn juda murakkab bo'lsa, uni soddalashtirish va leksik-morfologik tahlil bilan boyitish. Bu amaliyot talabalarga murakkab ilmiy, falsafiy yoki tarixiy matnlarning ichki tuzilishini anglash, har bir so'zning vazifasini (morfologiya) va ma'nosini (leksika) chuqur tushunish imkonini beradi. Natijada, talabalar matnning g'oyaviy yukini ongli ravishda o'zlashtirib, kelajakda shunga o'xshash murakkab ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantiradilar.

2024-2025 o'quv yilida tadqiqot ishi mavzusi kesimida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan va ishlab chiqilgan mashqlarni tajriba-sinovdan o'tkazishga qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari tashxis va bashorat qilish (prognostik), tashkiliy-tayyorgarlik, amaliy va umumlantiruvchi bosqichlarda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti hamda Samarqand davlat chet tillari institutida tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlari 2-bosqich talabalari jalb etildi va tajriba-sinov boshida jami 202 nafar talaba va 35 nafar professor-o'qituvchilar qatnashdi. Tajriba-sinov yakunida 201 nafar talaba ishtirok etdi. (2-3-jadvallarga qarang).

### 3-jadval.

#### Tajriba-sinov maydonlari to'g'risida ma'lumotlar

| <b>Tajriba-sinov maydoni</b>                                    | <b>Fakultet nomi</b>                              | <b>Kafedra nomi</b>                     |
|-----------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti | Filologiya fakulteti                              | Ingliz tili va adabiyoti kafedrası      |
| Samarqand davlat chet tillari instituti                         | Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti | Ingliz filologiyasi kafedrası           |
| O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti                   | Ingliz filologiyasi fakulteti                     | Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrası |

*Tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichida* belgilangan tajriba-sinov maydonlarida ma'lumotga ega bo'lish, mavjud muammolarni aniqlash asosida tajriba-sinovning maqsad va vazifalari belgilandi, metodik ta'minot mavzulari shakllantirildi. Mazkur bosqichning ilk vazifasi malaka talablari, fan va o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari tahlilidan iborat bo'ldi.

So'rovnoma natijalaridan quyidagi xulosalarga keldik: 35 nafar professor-o'qituvchidan 15 nafari darslarda badiiy matnlardan foydalanganda o'qigan ma'lumotlarni mustahkamlash uchun og'zaki savol-javobdan, 8 nafari testdan, 11 nafari esa rolli o'yinlardan foydalanishlarini ko'rsatganlar. Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar ro'yxati berib borasizmi degan savolga, 12 nafari ha, 9 nafari yo'q, 7 nafari ba'zida, 3 nafari shart emas deb hisoblayman degan javobni belgilaganlar.

O'tkazilgan savolnoma javoblari mutaxassis OTMlari professor o'qituvchilari badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyasi bo'yicha kam tasavvurga ega ekanliklarini ko'rsatdi. Bunga asosiy sabab qilib, o'qish va yozish amaliyoti fanida badiiy matnlardan kam yoki deyarli foydalanmasliklarini va badiiy o'qish fanini o'quv rejada aks etmaganligini (O'zDJTU dan tashqari) ko'rsatish mumkin.

Anketa so'rovnomalari talabalar o'rtasida quyidagi natijalarni ko'rsatdi, 202 nafar talabalardan 52 nafari – gapirishda, 53 nafari – yozuvda, 44 nafari – tinglab tushunishda 72 nafari – o'qib tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlarini yozganlar. So'rovnoma javoblaridan talablarning ko'pchiligi o'qib tushunishda qiyinchiliklarga uchrashini ko'rishimiz mumkin. 87 nafar talaba – so'z boyligi yetarli emasligi, 63 nafari – matnlarning juda uzun hajmda ekanligi, 35 nafari matnlarning zerikarli mazmun kasb etganligi, 63 nafari – saviyali badiiy matnlar kamligi, 33 nafari – boshqa qiyinchiliklarni ko'rsatib o'tganlar. Biz tadqiqotimizda yuqoridagi qiyinchiliklardan kelib chiqqan holda, badiiy matnni o'qish orqali talabalarining so'z boyligini oshirishga, o'qib tushunishni takomillashtirishga hamda tez o'qish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladigan mashqlar tizimi ustida

ish olib bordik. Fikrimizcha, mazkur mashqlar tizimi filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashishiga yordam beradi.

*Tashkiliy tayyorgarlik bosqichida* tajriba-sinov ishlarini o'tkazish joyi, vaqti, tajriba-sinov muddati va o'quv material miqdori belgilandi hamda tajriba-sinovda ixtirok etuvchi guruhlar tanlab olindi (3-jadvalga qarang):

**4-jadval.**

#### **Tajriba-sinov ishiga jalb qilingan talabalar soni**

| O'quv yili                    | Kurslar    | OTMlari  | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi | Jami |
|-------------------------------|------------|----------|----------------|----------------|------|
| 2024-2025-o'quv yili boshida  | 2-kurs     | O'zDJTU  | 29             | 32             | 61   |
|                               |            | SamDChTI | 41             | 41             | 82   |
|                               |            | NamDChTI | 30             | 29             | 59   |
|                               | 2-kurslar  | jami     | 100            | 102            | 202  |
| 2024-2025-o'quv yili yakunida | 2-kurs     | O'zDJTU  | 29             | 32             | 61   |
|                               |            | SamDChTI | 41             | 40             | 81   |
|                               |            | NamDChTI | 30             | 29             | 59   |
|                               | 2- kurslar | jami     | 100            | 101            | 201  |

Ta'limning 3-semestrda 2-bosqich TG va NG talabalarining o'qish kompetensiyasini dastlabki darajasini aniqlash maqsadida biz tomonimizdan tuzilgan test savollari berildi. Dastlabki natijalar tahlil qilinib bo'lganidan so'ng, biz TGlari talabalariga biz tavsiya qilgan 3 bosqichli **“O'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli”** asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimidan foydalanildi. NGlari esa an'anaviy usulda o'qitildi. Semestr yakunida biz tavsiya qilgan mashqlar tizimi va model samarasini ko'rish uchun yakuniy natijani aniqlash maqsadida talabalarga testlar berildi. Quyida TG hamda NG talabalarining har ikkala dastlabki va yakuniy natijalari taqdim etildi (4-jadvalga qarang):

**5-jadval**

#### **2-bosqich talabalarining o'qish kompetensiyasining dastlabki natijalari**

| kurslar | OTMlari  | tajriba guruhlari |        |          |             |              | nazorat guruhlari |        |          |             |              |
|---------|----------|-------------------|--------|----------|-------------|--------------|-------------------|--------|----------|-------------|--------------|
|         |          | talabalar soni    | “A”lo” | “Yaxshi” | “Qoniqarli” | “Qoniqarsiz” | talbalar soni     | “A”lo” | “Yaxshi” | “Qoniqarli” | “Qoniqarsiz” |
|         |          |                   | 5      | 4        | 3           | 2            |                   | 5      | 4        | 3           | 2            |
| 2 -kurs | O‘zDJTU  | 29                | 4      | 8        | 10          | 7            | 32                | 4      | 9        | 11          | 8            |
|         | SamDChTI | 41                | 7      | 12       | 14          | 8            | 41                | 6      | 13       | 13          | 9            |
|         | NamDChTI | 30                | 5      | 8        | 11          | 6            | 29                | 4      | 8        | 12          | 5            |
| 2 -kurs | jami     | 100               | 16     | 28       | 35          | 21           | 102               | 14     | 30       | 36          | 22           |

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari davomida tajriba va nazorat guruhlar uchun ishlab chiqilgan o'qish kompetensiyasini takomillashtirishga oid mashqlarni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi (5-jadvalga qarang):

**6-jadval**

**Talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirishga oid mashqlarni baholash mezonlari**

| <b>Mezon</b>           | <b>5 - A'lo</b>                                                     | <b>4 - Yaxshi</b>                                                  | <b>3 - Qoniqarli</b>                                               | <b>2 - Qoniqarsiz</b>                                   |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| <b>Lug'at boyligi</b>  | Yangi so'z va iboralarni to'liq tushunadi va aniq qo'llaydi         | Ko'pchilik so'zlarni to'g'ri tushunadi, lekin ba'zi xatolar mavjud | Asosiy so'zlarni tushunadi, biroq murakkab iboralarda qiynaladi    | Ko'p so'zlarni tushunmaydi va xato qo'llaydi            |
| <b>O'qish tezligi</b>  | Juda tez va ravon o'qiydi (200+ WPM), pauzalar minimal              | Tez va ravon o'qiydi, ba'zan mayda pauzalar mavjud                 | O'qish tezligi qoniqarli, ammo ba'zi kechikishlar kuzatiladi       | Juda sekin o'qiydi, ko'p to'xtashlar mavjud             |
| <b>O'qib tushunish</b> | Asosiy g'oya va tafsilotlarni aniq tushunadi, izchil fikr bildiradi | Asosiy fikrlarni yaxshi tushunadi, ayrim tafsilotlarda xatolar bor | Asosiy mazmunni tushunadi, lekin ba'zi muhim jihatlarni anglamaydi | Asosiy mazmunni noto'g'ri tushunadi yoki chalkashtiradi |

*Umumlashtiruvchi bosqichda* tajriba-sinov ishining natijalari tahlil qilindi va samaradorlik ko'rsatkichi aniqlandi. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari davomida tajriba-sinov oldi va tajriba yakuni bo'yicha tajriba va nazorat guruhi talabalarining o'qish kompetensiyasi takomillashganligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz yakunida olingan natijalarga ko'ra, pedagogik tajriba – sinov ishida aniqlangan kamchiliklarni inobatga olgan holda, biz mutaxassis OTM talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi metodik tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. O'qish ko'nikmasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga oid darsliklar "O'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli" asosida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

2. O'qish ko'nikmasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda so'z boyligini oshirish, o'qish tezligini takomillashtirish, matnni chuqur tushunishga oid mashq va topshiriqlar berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

3. Badiiy matnlarni o'qish jarayonida, matnda keltirilgan ma'lum bir masalalarga oid fikrlarni bayon etish ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishga undaydigan mashq va topshiriqlar berilsa, talabalarda muayyan

masalalarga oid o'z fikrlarini bildirish, tanqidiy fikr yuritish, tahlil qilish, qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

O'qish kompetensiyasini takomillashtirishda qo'llanilgan usullar – so'z boyligini oshirish, o'qish tezligini takomillashtirish va matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish kabi bosqichlarda erishilgan natijalarning ishonchliligini aniqlash maqsadida matematik statistika usullaridan biri bo'lgan Styudent statistikasi (Student's t-test) qo'llandi. Ushbu usul natijalarining asosli ekanligini tasdiqlashda muhim ahamiyat kasb etadi va eksperimental guruhda kuzatilgan ijobiy o'zgarishlarning tasodifiy emasligi isbotlandi.

Olingan testlardagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va samaradorligini aniqlash K.Pirsonning  $\chi^2$  (X-kvadrat) mezoni hamda Student mezoni asosida tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda testni baholash mezoni va natijalari keltirilgan. (6-jadvalga qarang).

**7-jadval.**

**Talabalarda o'qish kompetensiyasini takomillashgani bo'yicha olingan yakuniy testni baholash mezoni**



| Level          | Demonstrates strong reading competence, accurate comprehension, fluent reading, and rich vocabulary knowledge | Shows good understanding with minor weaknesses | Demonstrates partial understanding and moderate fluency | Shows weak comprehension and limited reading competence |
|----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| Excellent      | 90–100                                                                                                        |                                                |                                                         |                                                         |
| Good           |                                                                                                               | 70–89                                          |                                                         |                                                         |
| Satisfactory   |                                                                                                               |                                                | 60–69                                                   |                                                         |
| Unsatisfactory |                                                                                                               |                                                |                                                         | 0–59                                                    |

Statistik tahlil quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Tajriba oldi o'lchovlar ikkala guruhning boshlang'ich holati o'rtasida statistik ahamiyatga ega bo'lmagan farq yo'qligini ko'rsatdi, bu esa tajribani olib borish uchun guruhlarning to'g'ri tanlanganligini tasdiqlaydi.

2. Har bir o'quv yili yakunidagi o'lchovlar innovatsion metodikaning samaradorligini aniq ko'rsatdi. TG'ning o'rtacha ko'rsatkichi NG'nikiga nisbatan doimiy ravishda 12% ga yuqori bo'ldi.

3. Styudentning T-kriteriyasi bo'yicha olingan natijalar ( $T=2,40$  va  $T=2,38 > 1,98$ ) ushbu farqning tasodifiylik bilan izohlab bo'lmaydigan, statistik ahamiyatli ekanligini isbotladi. Boshqacha qilib aytganda, natijalardagi yaxshilanish qo'llanilgan pedagogik texnologiyaning bevosita ta'siri hisoblanadi.



## XULOSALAR

Mazkur tadqiqotda filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi 2-bosqich talabalarining ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida o‘qish kompetensiyasini takomillashtirish muammosi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida o‘qish kompetensiyasini takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy manbalar chuqur tahlil qilinib, uning tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi, hamda mazkur kompetensiyani rivojlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijasida talabalarning o‘qish kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan “lug‘at boyligini oshirish → tez o‘qish → matnni

chuqur tushunish” ketma-ketligiga asoslangan uch bosqichli model ishlab chiqildi va ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu model o‘qish jarayonini tizimli tashkil etish, talabalarning lingvistik va kognitiv ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish, shuningdek, badiiy matnni chuqur anglashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, tadqiqot doirasida badiiy matnlar asosida o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishning integrativ yondashuvi taklif etilib, u orqali talabalarning mustaqil fikrlash, analitik tahlil qilish va mulohaza yuritish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkoniyati yaratildi. Badiiy matnlarni ifodali o‘qish jarayonida fonetik komponentlar — talaffuz aniqligi, intonatsiya, ritm, pauza va urg‘u kabi jihatlar tizimli ravishda baholanib, o‘qishning fonetik aspektini rivojlantirishga qaratilgan eksperimental yondashuv ishlab chiqildi.

“Filolog talabalarning o‘qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasi ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. O‘qish kompetensiyasini takomillashtirish masalalari yuzasidan dunyo miqyosida ko‘plab izlanishlar olib borilgan bo‘lishiga qaramasdan, xususan, badiiy matnlar asosida takomillashtirish g‘oyasi yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababdan filologik yo‘nalishdagi OTM talabalarining ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida o‘qish kompetensiyasining tarkibiy jihatlar — lug‘at boyligini oshirish, o‘qish ravonligini rivojlantirish va matnni anglash ko‘nikmalarini takomillashtirishning eng samarali usullarini ishlab chiqish keng qamrovli yondashuvlarni, jumladan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kommunikativ yondashuv, talaba markazda yondashuvi, shuningdek, zamonaviy interfaol va integrativ metodlarni hamda chuqur ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

2. Ta’limda mavjud nazariya va amaliyot birligi didaktik tamoyiliga tayangan holda, filologik yo‘nalishdagi 2-bosqich talabalarning ingliz tilidagi o‘qish kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida “O‘qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli” ishlab chiqildi. Ushbu model uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

So‘z boyligini oshirish – badiiy matnlardagi yangi leksik birliklarning shakli, ma’nosi va kontekstdagi qo‘llanilishi izohlanib, talabalarning lug‘at boyligini kengaytirishga yo‘naltirilgan mashqlar qo‘llanildi.

O‘qish tezligini rivojlantirish – badiiy matnni tushunish jarayonida talabalar tezkor fikrlash va asosiy ma’lumotlarni ajratib olish kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan mashqlarni bajardilar.

Matnni chuqur tushunish – badiiy matn mazmunini tahlil qilish, undagi kontekstual va semantik bog‘liqliklarni anglash hamda fikrni izchil va asosli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar amalga oshirildi.

Ushbu uch bosqichli yondashuv orqali talabalarning o‘qish kompetensiyasi izchil va bosqichma-bosqich rivojlantirilib, matnni tushunish samaradorligi oshirildi.

3. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Namangan davlat chet tillari institutida talabalarga o'qish kompetensiyasiga hozirgi kungacha shakllangan munosabat (o'qish ko'nikmasi bo'yicha fan dasturlari, darsliklarni va dars jarayonlarining tahlili) o'rganildi. Mazkur jarayonda o'qish ko'nikmasidagi muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish maqsadida filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirish modeli taklif qilindi. Shuning asosida filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar berildi.

4. Filologik yo'nalishdagi OTM talabalarini o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda darslar samaradorligini oshirishga chet tillarni o'qitishda mavjud nazariya va amaliyot birligi, izchillik, ichki va tashqi ko'rgazmalilik, osondan qiyinga, puxta o'zlashtirish kabi didaktik prinsiplar hamda mashqlar bajarish, til tajribasini hisobga olish kabi metodik prinsiplar inobatga olinishi xizmat qiladi.

5. Mazkur tadqiqot davomida filolog talabalarining o'qish kompetensiyasi badiiy matnlar asosida takomillashtirildi. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tajriba-sinov o'tkazish uchun tanlab olingan filologik yo'nalishdagi OTMlari talabalarining o'qish kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi sinovdan o'tkazildi. Tajriba boshida va yakunida olingan natijalarning qiyosiy tahliliga ko'ra, tavsiya etilgan.

6. Olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalariga ko'ra, filologik yo'nalishdagi OTMlari: O'zDJTU 2-bosqich talabalarining o'qish kompetensiyasi 1,12 barobarga, ya'ni o'rtacha 12% ga yuqori ekanligi, SamDChTI 2-bosqich talabalariniki 1,11 % ga, o'rtacha 11% ga, NamDChTI 2 -bosqich talabalariniki 1,12 barobarga, o'rtacha 12% ga yuqori ekanligi statistik usullar orqali aniqlandi. NG va TGlardagi natijalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, TGlari 2-bosqich talabalarining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari NGlari talabalarining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib, ularning samaradorligi 1,12% gacha, o'rtacha 12% gacha yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida o'qish tezligi va matnni tushunish darajasini aniqlashga mo'ljallangan diagnostik vositalar, topshiriqlar tizimi hamda baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ular Blum taksonomiyasining bilish, tushunish, qo'llash, tahlil va umumlashtirish bosqichlariga asoslangan holda talabalarining tahliliy fikrlash va mulohaza yuritish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur diagnostik-modulli treninglar pedagogik tajriba-sinov jarayonida o'z samaradorligini ko'rsatdi.

Amaliy natija sifatida ingliz tilidagi badiiy matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan, o'qishdan oldingi, o'qish jarayonidagi va o'qishdan keyingi bosqichlarni qamrab olgan "Badiiy o'qish" o'quv qo'llanmasi yaratildi hamda ta'lim jarayoniga joriy etildi. Shuningdek, kredit-modul tizimi asosida yangilangan o'quv dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan metodik yondashuv va uch bosqichli model filolog talabalarining o'qish kompetensiyasini

samarali rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashini faollashtirish hamda ingliz tilidagi badiiy matnlarni chuqur anglash darajasini oshirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga, xususan, badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy va amaliy asoslarni yaratdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.PED.4502  
ПРИ ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНИХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**  

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ  
ЯЗЫКОВ**

**САИДОВА РАВШАНА ТУРСУНОВИЧА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ  
СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ ЧЕРЕЗ МАТЕРИАЛЫ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ  
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ**

**13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (английский  
язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Ташкент 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за B2025.1.Phd/Ped9365**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Научный руководитель:** **Юсупов Отабек Якубович**  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,  
доцент

**Официальные оппоненты:** **Хашимова Дилдорхон Уринбаевна**  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Машарипова Феруза Джуманазаровна**  
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,  
доцент

**Ведущая организация:** **Гулистанский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета \_\_\_\_\_ по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Малая кольцевая, 21А. Тел.: (99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекском государственном университете мировых языков (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Малая кольцевая, 21А. Тел.: (99871) 230-12-91.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года.  
(Протокол реестра рассылки №\_\_ от «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года).

**И.М. Тухтасинов –**  
председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
педагогических наук (DSc), профессор.

**Ф.Г. Закирова –**  
учёный секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
философии (PhD) по педагогическим наукам,  
доцент.

**А.Б. Рахмонов –**  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор педагогических наук (DSc),  
профессор.

## ВВЕДЕНИЕ

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире качественное образование молодежи, подготовка конкурентоспособных и квалифицированных кадров отмечены как одна из приоритетных задач. Важным фактором является формирование и совершенствование читательской компетенции при обучении иностранным языкам, в частности английскому языку, на основе требований CEFR. На сегодняшний день научные исследования, проводимые в таких развитых странах, как США - Университет Вольдена, Великобритания-Университет Суссекс, Нидерланды-Университет Радбоуд, Индонезия -Университет Мухаммадия Суракарта, Китайско-Гуандунский университет Байюн и Малайзия - Университет Рединг Малайзии, по эффективному совершенствованию читательской компетенции студентов имеют особое значение, изучение их опыта, усиление совместных исследований приобретает важное значение.

Организация учебных занятий на основе интегративного подхода в процессе обучения иностранным языкам в мировом масштабе, использование художественных текстов в совершенствовании компетенции чтения на иностранном языке стало широким и всеобъемлющим требованием. Рост объемов и темпов обмена информацией, стремительное развитие компьютерных технологий, оценка навыка чтения как необходимого аспекта в области языка и его значимость в образовательном процессе в значительной степени отражаются в о'р. Усиление роли иностранного языка в эпоху глобализации объясняется обучением художественным текстам и развитием аналитического мышления, когнитивного познания, умения использовать критические и творческие навыки.

С этой точки зрения изучение зарубежного опыта, совершенствование читательской компетенции и методики преподавания, а также разработка методов обучения, направленных на развитие читательской компетенции для студентов филологического направления, стали актуальной проблемой в нашей Республике.<sup>37</sup> В этой связи важное значение приобретают изучение передового зарубежного опыта по развитию читательской компетенции студентов-филологов; разработка методики совершенствования словарного запаса, беглости чтения и навыков понимания текста на основе англоязычных художественных произведений; а также совершенствование способов последовательного развития компонентов читательской компетенции будущих специалистов-филологов на основе коммуникативного подхода, существующего в современной системе образования.

---

<sup>37</sup> Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № ПФ-5847. (дата обращения: 06.03.2024)

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О Стратегии дальнейшего развития Нового Узбекистана” Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О Стратегии дальнейшего развития Нового Узбекистана”, указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-21 от 16 февраля 2026 года “О дополнительных мерах по последовательному продолжению реформ и выведению их на новый этап в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года”, указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-58 от 10 апреля 2026 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций», указ Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2026 года № ПФ-98 «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения».

